

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA BOSHQARUVNING TASHKILY
TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

[Ko‘chirma]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to‘g‘risida” 2001-yil 4-iyundagi PF-2871-son **Farmoniga** muvofiq, shuningdek respublika va hududiy darajalarda avtomobil transportini boshqarishning samarali tashkiliy tuzilmasini barpo etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston avtomobil transporti (“O‘zavtotrans”) davlat-aksionerlik korporatsiyasini tugatish bo‘yicha 1-ilovaga* muvofiq tarkibda komissiya tashkil etilsin.

* 1-ilova berilmaydi.

Tugatish komissiyasi belgilangan tartibda ikki oy muddatda “O‘zavtotrans” korporatsiyasini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirsin, korporatsiya, shuningdek uning tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar balansidagi davlat mulkini xatlovdan o‘tkazsin va undan bundan buyon samarali foydalanish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasiga takliflar kiritsin.

2. Tugatilayotgan “O‘zavtotrans” korporatsiyasiga kirgan birlashmalar va kompaniyalar muassislarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining:

“O‘ztransxizmati” davlat-aksiyadorlik birlashmasi, “O‘ztranstaraqqiyot” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zavtoxodim” davlat-aksiyadorlik birlashmasini tugatish, ular tarkibiga kirgan korxonalar va tashkilotlarni avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmalariga berish;

“Toshviloyatyo‘lovchitrans” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi va “Toshviloyatyuktrans” davlat-aksiyadorlik kompaniyasini “Toshviltrans” avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmasiga aylantirish;

“O‘zviloyatlararoavtotrans” respublika davlat-aksiyadorlik birlashmasi, “O‘ztranssanoat” respublika uyushmasi, “Yo‘lovchi” sug‘urta kompaniyasi, “BK INTRANS” ochiq aksiyadorlik jamiyatining O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlar sifatida faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi takliflari qabul qilinsin.

3. “Xorazmdaryoflot” boshqarmasi tugatilsin, unga qarashli tashkilotlar Xorazm viloyati avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmasi tarkibiga berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi “Xorazmdaryoflot” boshqarmasini tugatish chora-tadbirlarini belgilangan tartibda ikki oy muddatda amalga oshirsin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi daryo yo‘llarining Xo‘jayli va Chalish texnik uchastkalarini mablag‘ bilan ta‘minlashni respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati mahalliy budjetlaridan mablag‘ bilan ta‘minlashga o‘tkazsin.

4. Quyidagilar:

avtomobil va daryo transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq; respublika birlashmalari va uyushmalari, avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmalari tarkibiga berilayotgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati **3-ilovaga*** muvofiq;

* 3-ilova berilmaydi.

avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmasi boshqaruvi ijro etuvchi apparatining namunaviy tuzilmasi **4-ilovaga** muvofiq ma‘qullansin.

5. Tugatish komissiyasi belgilangan tartibda:

“Avtotransport Uzbekistana” jurnali, “O‘zbekiston avtomobilchisi” gazetasi tahririyatlarini va avtomobil transportida xizmatlarni sertifikatlash respublika markazini O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi ixtiyoriga;

tugatilayotgan “O‘zavtotrans” korporatsiyasining **5-ilovaga** muvofiq o‘quv muassasalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi ixtiyoriga bersin.

Oldingi tahrirga qarang.

(6-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi 2001-yil 1-avgustgacha bo‘lgan muddatda ilgari “O‘zavtotrans” korporatsiyasi tizimiga kirgan avtomobil transporti aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalar paketlarining davlat ulushini boshqarish bo‘yicha ishonchli boshqaruvchilarni tanlov asosida tayinlasin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi 2001-yil 1-avgustgacha bo‘lgan muddatda hududiy davlat-aksiyadorlik konsernlari va birlashmalarini avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashish hududiy uyushmalariga aylantirish chora-tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirsinlar.

10. “O‘zavtotrans” davlat-aksionerlik korporatsiyasini tugatish bo‘yicha maxsus komissiya bozor normalari va maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqib, litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro‘yxati va litsenziyalash tartibini, avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashishga qo‘yiladigan litsenziya shartlari va talablarini, ularni yanada erkinlashtirishni nazarda tutgan holda, qayta ko‘rib chiqishga doir takliflarni bir oy muddatda ko‘rib chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

11. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi bilan birgalikda:

mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, barcha avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashuvchilar tomonidan belgilangan litsenziya shartlari va talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish mexanizmini nazarda tutuvchi Avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashishni nazorat qilish tartibini ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga kiritin;

Davlat bojxona qo‘mitasi bilan birgalikda bojxona postlarida nazorat qilishning samarali tizimini tashkil etish va respublikaga kirib kelayotgan avtotransport vositalarining texnik holatini, yo‘l qo‘yiladigan og‘irlik va gabarit parametrlari, xalqaro yuk va yo‘lovchilar tashishni amalga oshirishda Evropa bitimi (ESTR) talablariga muvofiq ularda nazorat priborlari (taxograflar) mavjudligini inspeksiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi takliflarni ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

12. Ilgari “O‘zavtotrans” korporatsiyasiga kirgan hamda “O‘zavtotrans” korporatsiyasi kafilligi ostida “Asaka” bankidan olingan kreditlar bo‘yicha qarzdor bo‘lgan avtotransport korxonalari va tashkilotlari kafillik shartnomalarini kreditlarni ta‘minlashning boshqa turlariga — garov, kafolat va uchinchi shaxslarning kafilligiga bir oy muddatda belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirsinlar.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi bilan birgalikda Xalqaro tiklash va taraqqiyot bankining № UZ 4547 qarz bitimi bo‘yicha “O‘ztranssanoat” respublika uyushmasini tugatilayotgan “O‘zavtotrans” korporatsiyasi o‘rniga subqarz oluvchi etib belgilash masalasini Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki bilan ishlab chiqsin.

14. Tugatish komissiyasi Toshkent shahar, akademik Y.G‘ulomov ko‘chasidagi 39a uydagi binoni va boshqa mol-mulki belgilangan tartibda “O‘zavtotrans” balansidan O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi balansiga bersin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston avtomobil transporti (“O‘zavtotrans”) davlat-aksionerlik korporatsiyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari” to‘g‘risidagi 1993-yil 12-yanvardagi 21-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 9-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.


Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2001-yil 5-iyun,

Avtomobil va daryo transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi

Oldingi tahrirga qarang.


Respublika darajasida



(sxema O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qarori tahririda— O'R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

Avtomobilda yuk va yo'lovchilar tashish hududiy uyushma boshqaruvi ijro etuvchi apparatining

NAMUNAVIY TUZILMASI



Vazirlar Mahkamasining
2001-yil 5-iyundagi 245-sonli qaroriga
5-ILOVA

“O‘zavtotrans” davlat-aksiyadorlik korporatsiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufiga o‘tkaziladigan o‘quv muassasalari

RO‘YXATI

T/r	O‘quv muassasalarni nomi
-----	--------------------------

1. Toshkent avtomobil yo‘llari texnikumi
2. Buxoro avtomobil yo‘llari texnikumi
3. Nukus avtomobil yo‘llari texnikumi
4. Urganch avtomobil yo‘llari texnikumi
5. Qo‘qon avtomobil yo‘llari texnikumi

Oldingi tahrirga qarang.

(6-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan— O‘R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(7-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan— O‘R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(8-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan— O‘R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar

I. Vazirlar Mahkamasining “Avtomobilida xorijiy yuk tashuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo‘lishlari, yuk olib o‘tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi to‘g‘risida” 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qarorining **7-bandi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“7. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitaga hamda Davlat bojxona qo‘mitasiga nazorat-o‘tkazish punktlarida xorijiy avtomobilida yuk va yo‘lovchilar tashuvchilarni;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga — xorijiy avtotransportning respublika hududi bo‘ylab harakat qilishini;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasiga respublikaga kirib kelayotgan avtotransport vositalarining texnik holatini, yo‘l qo‘yiladigan og‘irlik va gabarit parametrlarini, xalqaro yuk va yo‘lovchilar tashishni amalga oshirishda Evropa bitimi (ESTR) talablariga muvofiq ularda nazorat priborlari (taxograflar) mavjudligini hisobga olish va nazorat qilish yuklansin”.

II. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 11-iyuldagi 296-son **qarorining**:

1) 7-bandi **to‘rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“suzib yuruvchi qurilmalarni hisobga olganlik va tekshiruv ko‘rigidan o‘tkazganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tariflar bo‘yicha tushadigan mablag‘lar va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa mablag‘lar”;

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martdagi 118-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan— O‘R QHT, 2004-y., 10-son, 120-modda)

III. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 11-iyuldagi 296-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida” 1998-yil 2-oktabrdagi 422-son **qarori** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin

IV. Vazirlar Mahkamasining “Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo‘lovchilar tashish avtomobil transportida ochiq tenderlar tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” 1999-yil 29-iyuldagi 368-son **qarori** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1999-y., 7-son, 44-modda)da:

qarorning **1** va **6-bandlaridan**, qarorga 3-ilovaning **4-bandidan** “hamda “O‘zavtotrans” korporatsiyasi”, “hamda “O‘zavtotrans” davlat korporatsiyasi”, “O‘zavtotrans” korporatsiyasi” so‘zlari chiqarib tashlansin;

qarorning **4-bandida** “O‘zavtotrans” korporatsiyasi” so‘zlari “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

qarorga 2-ilovaning 20-bandi **uchinchi xatboshidagi** “O‘zavtotrans” korporatsiyasi” so‘zlari “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2001-y., 11-son, 65-modda; 2004-y., 10-son, 120-modda; 2005-y., 7-son, 57-modda)